HUQUQIY DAVLATDA BOSHQARUV PRINSIPLARI: QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT ORGANLARINING ROLI VA MA'SULIYATI

Saxatov Sanjar Sunnatillayevich
O'zbekiston davlat pedagogika universiteti magistranti
sanjarsaxatov1990@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining huquqiy jarayonlarini boshqarish va takomillashtirishdagi strategik ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan. Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni sifatida qonuniylikni ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlash hamda ijtimoiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi.*

Kalit so'zlar: *huquq va burchlar, demokratik rivojlanish, davlat boshqaruvi, qonuniylik, ta'lim tizimi, huquqiy targ'ibot, ommaviy axborot vositalari, huquqiy bilim, nodavlat tashkilotlar, fuqarolar faolligi.*

Аннотация. *Данная статья посвящена освещению стратегической важности Конституции Республики Узбекистан в управлении и совершенствовании правовых процессов. Конституция, как основной закон государства, играет важную роль в обеспечении легитимности, укреплении системы государственного управления и поддержании социальной стабильности.*

Ключевые слова: *права и обязанности, демократическое развитие, государственное управление, законность, система образования, юридическая защита, СМИ, юридические знания, неправительственные организации, гражданский активизм.*

Abstract. *This article is devoted to highlighting the strategic importance of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in managing and improving legal processes. The Constitution, as the fundamental law of the state, plays an important role in ensuring legitimacy, strengthening the system of public administration, and supporting social stability.*

Keywords: *rights and duties, democratic development, public administration, legality, education system, legal advocacy, media, legal knowledge, non-governmental organizations, citizen activism.*

Huquqiy jarayonlarni boshqarish – bu davlatning huquqiy tizimini rivojlantirish, qonunchilikni takomillashtirish, davlat organlari va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish orqali huquqiy tartibni ta'minlashga qaratilgan faoliyatidir.

Ushbu jarayon davlat hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa huquqiy subyektlarning muvofiqlashtirilgan hamkorligini talab qiladi. Har qanday davlatda huquqiy jarayonlar boshqaruvi va ularning takomillashuvi jamiyat barqarorligi, qonuniylik tamoyillarining qaror topishi va davlatning demokratik rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Bunda Konstitutsiya asosiy qonun sifatida davlat boshqaruvi va huquqiy tizimning uzviy faoliyatini ta'minlovchi bosh omil hisoblanadi. Konstitutsiya davlat hokimiyatining tashkil etilishi, qonunchilik, ijro etuvchi va sud tizimlarining vakolatlari hamda ularning o'zaro aloqalarini tartibga soladi.

U nafaqat davlat organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, balki huquqiy jarayonlarni boshqarishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Qonun ustuvorligini ta'minlash: Konstitutsiya davlatdagi barcha qonunlar va normativ hujjatlar uchun asosiy manba hisoblanib, qonunchilik jarayonining asosiy qoidalarini belgilaydi.
- Huquqiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash: Davlat organlarining faoliyati Konstitutsiyaga muvofiq amalga oshirilishi, fuqarolar huquq va erkinliklarini kafolatlaydi.
- Vakolatlarni taqsimlash: Konstitutsiya davlat hokimiyatining vakolatlarini aniqlashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Har bir davlat o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlar ekan, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o'zining Konstitutsiyasi – Asosiy qonunida mustahkamlab oladi.

Bugungi zamonaviy davlat boshqaruvida qonuniylikni taminlash muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 15-moddasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi" deb belgilangan.

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida davlat faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tuzumasi, ularning huquqiy holati, o'zaro munosabatlari qayta ko'rib chiqilib, zamon talablari darajasida tashkil etilmoqda.

Jamiyat rivojlanishi bilan turli xildagi yangi ijtimoiy munosabatlar vujudga kelib, ularni huquqiy tartibga solish muommosi paydo bo'ladi. Bu muommlarni yechimini topishda qonuniylik prinsipiga tayanishimiz kerak bo'ladi. Davlat boshqaruvining asosiy prinsiplaridan biri ham qonuniylikdir.

Qonuniylik tushunchasi haqida ko'plab olimlar turlicha fiklar bildirishgan. Masalan D.N.Baxraxning fikriga ko'ra, qonuniylik mazmunini aniqlashda birinchi navbatda qonunlarning sifatiga e'tibor qaratish, ya'ni uning ijtimoiy munosabatlarga, huquqqa mos kelishini aniqlash kerak.

Qonunlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi o'ziga xos vosita sifatida, jamiyatda mavjud bo'lgan iqtisodiy darajaga, tashkilotchilik, ma'daniyat va axloqiy

qoidalarga mos bo‘lishi kerak. Qonuniylik davlat huquqining jamiyat va fuqarolar manfaati yo‘lida legalizatsiyalash vositasi bo‘lishi kerak.

Qonuniylik – bu yuqori sifatli huquqiy normalarning yetarlicha mavjud bo‘lishi va barcha huquq sub’yektlari tomonidan unga qat’iy rioya etilishidir. Demak qonuniylik – bu qonunlar va ularga muvofiq chiqarilgan huquqiy hujjatlarga barcha davlat organlari, mansabdor va boshqa shaxslarning og‘ishmay amal qilishiga aytiladi.

Qonuniylik demokratiya va huquqiy davlat elementlaridan biri hisoblanadi. Y.M.Kozlov davlat boshqaruvida qonuniylikning quyidagi asosiy xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tadi:

- Birinchidan, barcha uchun qonunlarning majburiyligi. Aynan unda qonun talablarining ustunligi, uning oliy yuridik kuchini ko‘rish mumkin. Hech kimga qonunni chetlab o‘tishga yoki qonundan o‘zini ustun qo‘yishga yo‘l qo‘yilmaydi;
- Ikkinchidan, qonuniylikning yagonaligi bu mamlakat hududida qonun va qonunga asoslangan hujjatlar bir xilda tushunilishi va qo‘llanilishini tushunishimiz mumkin;
- Uchinchidan, qonuniylik va maqsadga muvofiqlikning mos kelishi. Qonunning o‘zi maqsadga muvofiqlikni namoyon bo‘lishining yuqori darajasidir;
- To‘rtinchidan, qonuniylik va aholi huquqiy ma’daniyatining chambarchas bog‘liqligi;
- Beshinchidan, har qanday qaror qabul qilinganda, qonuniylik va adolat birinchi o‘rinda turishi lozim;
- Oltinchidan, davlat boshqaruvida qonuniylikni buzganlik uchun javobgarlik muqarrar belgilanganida, ta’minlanishi mumkin.

Qonun va qonunosti hujjatlarga to‘la rioya etishni ta’minlovchi vosita va sharoitlar qonuniylikning kafolatlari hisoblanadi.

Bunday kafolatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy, mafkuraviy, maxsus yuridik jihatlari bor. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, turli shakldagi mulkchilik, jamiyatdagi iqtisodiy erkinliklar qonuniylikning ijtimoiy-iqtisodiy kafolati bo‘ladi.

Siyosiy hurfikrlilik, ko‘ppartiyaviylik, davlat tuzumining demokratik tamoyillarga mosligi qonuniylikning siyosiy kafolatini belgilaydi. Qonun va qonunga asoslangan hujjatlarni tatbiq etish va ularning nazoratini ta’minlovchi samarali mexanizmning mavjudligi qonuniylikning tashkiliy kafolatidan darak beradi. Aholining huquqiy ongi darajasi, axloqiy tarbiyasi qonuniylikka mafkuraviy kafolat beradi.

Qonuniylikning ta’minlanishi uchun amaldagi qonunchilikda mavjud usul va vositalar maxsus yuridik kafolat vazifasini bajaradi. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta’minlashda davlat boshqaruvi organlari tomonidan qo‘llaniladigan bir necha usullar mavjud bo‘lib, ular davlat boshqaruv organlarining kontrol va nazorat faoliyati hamda fuqarolarning murojatlari orqali amalga oshiriladi.

Shu jumladan, bu borada mamlakatimizda qonuniylikni ta’minlashda davlat boshqaruv organlari huquqiy asoslarini yaratish va yaratilganlarini qayta ko‘rib chiqish masalasi qo‘yilmoqda. Davlat boshqaruvida qonuniylikni taminlashda Prezidentlik instituti ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlariga va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlariga rioya etilishining kafilidir deb belgilab qo‘yilgan.

Bu borada Prezident virtual qabulxonasi tashkil etildi. Prezident Xalq qabulxonalari davlat organlari bilan aholi o‘rtasida ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, dolzarb muammolarni aniqlash, davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan murojaatlarning ko‘rib chiqilishini ta’minlashda o‘ziga xos samarali mexanizmga aylandi.

Bugungi kunga kelib Prezident virtual qabulxonasiga 4 million 988 960 ta murojat kelib tushgan va shulardan 4 million 882 125 tasi ko‘rib chiqilgan. Bu islohotlar inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda va davlat boshqaruvida qonuniylikni taminlanishida muhim qadam bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH. M. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”. 4-tom. – Toshkent.: “O‘zbekiston”. 2020-yil.
2. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi”. Uchinchi kitob. –Toshkent.: “O‘zbekiston”. 2013-yil.
3. Shamsutdinov R. “O‘zbekiston tarixi”. –Toshkent.: “O‘zbekiston”. 2018-yil.
4. Usmonov Q. “O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi”. – Toshkent.: “Moliya”. 2003-yil.